

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDAGI AXLOQIY QARASHLAR

*Toshkent viloyati Parkent tumani
34- umumiy o'rta ta'lim maktab ona
tili va adabiyoti o'qituvchisi
Abduxamidova Umida*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Abdulla Avloniy hayoti va ijodi haqida va uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi axloqiy, tarbiyaviy fikrlar to'g'risidagi qarashlarni bilib olishimiz mumkin. Abdulla Avloniy haqida O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidentining qarashlari va fikrlari haqida bilishimiz mumkin.

АННОТАЦИЯ: В этой статье мы можем узнать о жизни и творчестве Абдуллы Авлони и его взглядах на нравственные и воспитательные идеи в его книге «Турецкий Гулистан или Нравственность». Об Абдулле Авлони мы можем узнать из взглядов и мнений первого Президента Республики Узбекистан.

ANNOTATION: In this article we can learn about the life and work of Abdullah Avloni and his views on moral and educational ideas in his book Turkish Gulistan or Morality. We can learn about Abdullah Avloni from the views and opinions of the first President of the Republic of Uzbekistan.

KALIT SO'ZLAR: Kitob, tarbiya, ma'naviyat, axloq, ilm, jamiyat, ma'rifat, poklik, o'tmish, xulq, halollik.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Книга, образование, духовность, нравственность, наука, общество, просвещение, чистота, прошлое, поведение, честность.

KEY WORDS: Book, education, spirituality, morality, science, society, enlightenment, purity, past, behavior, honesty.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir. Abdulla Avloniyning axloqiy qarashlari mumtoz adabiyotimizning boy zaminida shakllandi. Abdulla Avloniy "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" deb nomlangan to'rt qismdan iborat bo'lgan darsligida yoshlarni maorif-madaniyatga chorlaydi, yaramas xulq-odatlarni esa tanqid qiladi. Bu kitoblarda Avloniy o'tmish adabiyotimizning eng yaxshi an'alarini davom ettirdi, ilm va ma'rifatning ahamiyatini yangichasiga talqin etdi. "Birinchi muallim"da Avloniy dastavval 32 harfni yolg'iz yoziladigan shakllarini bir sahifa alifbo tartibida bergan. Shu sahifada alifning so'zning boshida, o'rtasida va oxirida yozilishini ko'rsatgan, so'ng alifni barcha "bosh harflar"ga qo'shib, bo'g'inlar hosil qilgan. "Ikkinchi

muallim”da axloq-odobga doir, halollik va poklikka oid turli she’rlar, hikoya, masal va ertaklar jamlangan, rang-barang allegorik qiyofalardan ustalik bilan foydalangan. Bu kitoblarda Avloniy o‘tmish adabiyotimizning eng yaxshi an’alarini davom ettirdi, ilm va ma’rifatning ahamiyatini yangichasiga talqin etdi. “Turkiy guliston...”da “Yomon xulqlar” deb nomlangan bo‘lim bor. Unda kishilarga xos 18 qusur haqida gap ketadi. Insonlarni yaxshilikg‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O‘z aybini bilub, iqrar qilub tuzatmakg‘a sa’y va ko‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: «Mezon tarozusiga qo‘yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og‘irroqi yo‘qdur. Mo‘min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro‘za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar. Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari meni juda koo‘p jihatlar bilan o‘ziga tortgan. U asarda axloq, tarbiya, bilim, iroda kabi mavzularni yotigan Abdulla Avloniy bu asarida xulq haqida quyidagi she’riy jummalarni ham keltirgan:

Yomon yuz, ko‘zlidin na sud
Yuz, ko‘zli xulqni qilmas kashud.
Xulq mariziga davo istasang,
Marg davosin berilur qistasang.
Xulqi yomonning keturar ko‘p zarar,
Xulqing o‘zi boshingga kaltak urar.
Xulqi fano bo‘lsa degil alhazar,
Xor-u zalillikda qolur darbadar. (www.ziyouz.com Turkiy

guliston yoxud axloq)

Adibning ko‘plab ilm maskanlari ham ochganligini bilamiz u ko‘proq ilm tarafdori edi. Abdulla Avloniyning fikri va qilgan ishlaridan biz yoshlar o‘rnak olsak arziydi.

U "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida insonga xos xulqni ikkiga – yaxshi va yomonga ajrata-di. “Yaxshi xulqlar” deb nomlangan birinchi qismida u 31 fazilat, “Yomon xulqlar” deb atalgan ikkinchi qismda esa 20 illatga ta’rif beradi. O‘z mulohazalarini dalillash uchun Qur’on oyatlari va hadislardan, shuningdek, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Sa’diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlarini keltiradi. Har bir axloqiy kategoriyaga o‘z munosabatini bildirgach, o‘sha fikrning mazmunini ifodalovchi bayt yo biror maqol-hikmat ilova qiladi. U yaxshi xulqlarga

shijoat, intizom, vijdon, vatanni suymak kabi fazilatlarini kiritsa, gʻazab, jaholat kabi illatlarni yomon xulqning belgilari deb biladi.

Soʻylasang soʻyla yaxshi soʻzlardan,

Yoʻqsa jim turmoqing erur yaxshi.

Oʻylasang yaxshi fikrlar oʻyla,

Yoʻqsa gung boʻlmoqing erur yaxshi.

Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,

Yoʻqsa bekorligʻing erur yaxshi. (www.ziyouz.com Turkiy

guliston yoxud axloq)

Abdulla Avloniyning ushbu asaridan joy olgan misralar insonda turli xil tarbiyaviy tushunchalar ifoda etadi. Maʼlumki inson uning tashqi koʻrinishiga qarab emas, balki uning maʼnaviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyatning ravnaqi va kelajagi ana shu jamiyatda yashovchilarning maʼnaviy kamolotiga bogʻliq hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ham qachon taʼlim-tarbiya haqida gapiradigan boʻlsa, albatta, Abdulla Avloniy haqida toʻxtalib, uning ibratomuz soʻzi va ishini misol qilib aytadi: “Men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” degan fikrini koʻp mushohada qilaman”. Muallimning bosib oʻtgan hayot yoʻlini yoshlarga ibrat qilib koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: 2008.
2. Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent: 2004.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: 2008.